



ODDIY SHAFTOLI (*PERSICA VULGARIS* MILL.) EFIR MOYINI TAHLILI

Abdurasulieyeva G.M. ¹

Farmanova N.T. ²

Berdimbetova G.E. ³

¹ Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
gulshadabdurasulieva@gmail.com;
tel.: +998911641292

² Toshkent farmatsevtika instituti

³ O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17078809>

Oddiy shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.) *Rosaceae* oilasiga mansub o'simlik bo'lib, tarkibidagi efir moyi tibbiyotda dorivor va kosmetik maqsadlarida ishlatiladi, yaralarni, kuygan joylarni davolashda hamda terilarni tez tiklanishida yordam beradi [1, 2].

Lekin hozirgi vaqtda Orol mintaqasida joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasida o'sadigan shaftoli barglari tarkibidagi efir moyi chuqur o'rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida o'sadigan *Persica vulgaris* Mill. (QR) va Farg'ona viloyatida o'suvchi *Prunus persica* var. *nectarine* efir moylarini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot usul va uslublari. Oddiy shaftoli barglari (*Persica vulgaris* Mill.) 2024-yilning Qoraqalpog'iston Respublikasi Qong'iro't tumanida sentyabr oyida yig'ildi va standart holatiga keltirildi. Efir moyi gidrodistillyatsiya usulida ajiratib olindi, chiqish unumi 0.35 % ni tashkil etdi. Ajiratib olingan efir moyini GX-MC usulida Agilent 7890 AGC qurilmasida tahlil qilindi. Farg'ona viloyatining Quva (1-namuna) va Oltiariq (2-namuna) tumanlardagi *Prunus persica* var. *nectarina* (sariq nektarin) navining barglari tarkibidagi efir moyiga oid izlanish natijalari adabiyotda keltirilgan ma'lumotlardan olinib qiyosiy tahlil qilindi.

Natija. Tahlil natijasida natijasida 53 ta birikma aniqlandi. Ushbu birikmalar efir moyining 84.75 % ni tashkil qiladi [3].

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qong'iro't tumanida yig'ilgan oddiy shaftoli barglari (*Persica vulgaris* Mill.) efir moyi tarkibini organish natijalari, Farg'ona viloyatining Quva (1-namuna) va Oltiariq (2-namuna) tumanlardagi *Prunus persica* var. *nectarina* (sariq nektarin) navining barglari tarkibidagi efir moylari tarkiblari oid tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.





1-jadval

**Qoraqalpog'iston Respublikasi va Farg'ona viloyati (Quva, Oltiariq) da
o'sadigan shaftoli barglari efir moylarining tarkiblari**

Nº	Efir moyining tarkibi	Namuna QR	Farg'ona (Quva) 1-namuna	Farg'ona (Oltiariq) 2-namuna
1.	Izoborneol	16.22	6.17	9.40
2.	Benzaldegid	11.58	18.83	-
3.	δ -3-Karen	7.52	-	-
4.	(+)-4-Karen	-	1.45	0.13
5.	Naftalen	4.57	-	-
6.	Evkaliptol	5.85	0.68	1.06
7.	(E)-2-Geksen-1-al	3.35	1.46	0.73
8.	γ -Murolen	3.18	-	-
9.	(\pm)-Kripton	3.15	-	-
10.	Lavandulol atsetat	2.98	-	-
11.	o-Izopropeniltoluol,	2.87	-	-
12.	Benzil alkogol	2.81	-	-
13.	(\pm)-Bornil Atsetat	2.31	-	-
14.	(-)-Kamfora	2.32	0.34	0.34
15.	γ -Terpinen	1.68	-	-
16.	Siklogeksen	1.21	-	-
17.	Palmitin kislota	2.59	-	-
18.	(+)-2-bornanon (kamfora)	-	24.21	36.67
19.	a-tuyon	-	15.00	21.81
20.	b-tuyon	-	4.27	7.06
21.	zed-3-Geksen-1-ol	-	2.28	0.59
22.	α -terpinen	-	0.11	2.18
23.	IR- α -Pinen	-	0.82	1.32
24.	α -Gidroksitoluol	-	3.92	1.96
25.	Evgenol	0.17	2.15	0.48
26.	2-Metoksi-4- vinilfenol	-	1.50	0.38

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyatining namunalarida izoborneol 6.17 va 9.40 % hamda benzaldegid 18.83 %,





Qoraqalpogiston Respublikasi namunasida esa izoborneol 16.22%, benzaldegid 11.58% ni tashkil etdi.

Xulosa. Qoraqalpog'iston Respublikasida o'sadigan oddiy shaftoli barglari efir moyi tarkibida 17 ta birikma aniqlanib, ulardan eng kop birikmalar izoborneol (16.22%) va benzaldegid (11.58%) ekanligi isbotlandi.

Adabiyotlar

1. Исторический опыт и перспективы использования сырья персика в медицине и фармации. Савенкова Анна Борисовна, Нестерова Надежда Викторовна. Секция фармацевтические науки. //Студент года 2019;340-342.

2. Mostafa, E.S., Maher, A., Mostafa, D.A., Gad, S.S., Nawwar, M.A.M., Swilam, N. A. A Unique Acylated Flavonol Glycoside from *Prunus persica* (L.) var. Florida Prince: A New Solid Lipid Nanoparticle Cosmeceutical Formulation for Skincare. //Antioxidants 2021. 10. 436. <https://doi.org/10.3390/antiox10030436>
Academic Editors: Yong Chool Boo Received: 24 February 2021 Accepted: 8 March 2021 Published: 12 March 2021;1-16.

3. Карабаева Р.Б., Ибрагимов А.А., Назаров. О.М. Компонентный состав эфирного масла *Prunus Persica* var. Nectarine, произрастающего в Узбекистане. //Химия растительного сырья. 2020. №4;165-168.

